

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBOROTNING ISHONCHLILIGINI ANIQLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Salayeva Sitora Sherali qizi

ANNOTATSIYA

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida axborot manbalarining mislsiz darajada ko‘payishi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning keng tarqalishi, shuningdek, sun‘iy intellekt asosida yaratilayotgan kontent hajmining ortishi pedagoglarning axborotni tanlash, verifikatsiya qilish va uning haqqoniyligini baholash kompetensiyasiga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Tadqiqotda axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasi bo‘lajak o‘qituvchining axborot manbasini identifikatsiya qilish, muallif va manbaning nufuzini baholash, dalillarning asoslanganligini tekshirish, turli manbalarni o‘zaro qiyoslash, fakt va subyektiv fikrni farqlash hamda yolg‘on, manipulyativ va dezinformatsion axborotni aniqlash qobiliyatlarining yaxlit majmuasi sifatida talqin etiladi. Jahon tajribasi tahlili mazkur kompetensiyani rivojlantirishda media va axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, faktcheking, raqamli savodxonlik hamda kompetensiyaga asoslangan ta‘lim yondashuvlarining muhimligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotda sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanish sharoitida axborotning kelib chiqishi, aniqligi va verifikatsiya qilinishi masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotning ishonchliligini mustaqil baholash kompetensiyasini shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta‘lim jarayonida sifatli va ishonchli axborotdan foydalanish hamda o‘quvchilarning media-axborot savodxonligini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, axborotning ishonchliligi, axborotni verifikatsiya qilish, axborot kompetensiyasi, media savodxonlik, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash.

KIRISH

Axborot inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borib, ta‘lim tizimining mazmuni, shakli va metodlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta‘lim platformalari, raqamli kutubxonalar va sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta‘lim oluvchilar va pedagoglar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatlari misli ko‘rilmagan darajada kengaydi. Biroq axborot hajmining ortishi uning sifat va ishonchlilik darajasi hamisha yuqori bo‘lishini anglatmaydi. Aksincha, raqamli makonda noto‘g‘ri, tekshirilmagan, kontekstdan uzilgan, manipulyativ va ataylab tarqatiladigan dezinformatsion ma‘lumotlarning ko‘payishi ta‘lim jarayonida axborotning ishonchliligini aniqlash masalasini dolzarb pedagogik muammoga aylantirmoqda.

Mazkur sharoitda zamonaviy o‘qituvchiga faqat fan doirasidagi bilimlarni egallashning o‘zi yetarli emas. U turli axborot manbalarini aniqlashi, ularning kelib

chiqishi va muallifligini tekshirishi, ma'lumotning dolzarbligi va ilmiy asoslanganligini baholashi, dalillarni boshqa mustaqil manbalar bilan qiyoslashi hamda olingan axborotdan pedagogik maqsadlarda mas'uliyatli foydalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasini shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasi shaxsning ma'lumotni shunchaki qabul qilish emas, balki uning manbasi, mazmuni, daliliy bazasi va maqsadini tanqidiy o'rganish qobiliyatini anglatadi. Mazkur kompetensiya axborotni izlash, manbani identifikatsiya qilish, muallif va tashkilotning ishonchliligini baholash, faktlarni tekshirish, turli manbalarni qiyoslash, fakt va fikrni farqlash, manipulyativ mazmunni aniqlash hamda asoslangan xulosa chiqarish kabi o'zaro bog'liq ko'nikmalar majmuini qamrab oladi. Demak, axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasi axborot savodxonligi, media savodxonlik, raqamli kompetentlik va tanqidiy fikrlashning uzviy integratsiyasi asosida shakllanadi.

Jahon ta'lim tajribasida ham mazkur masalaga tobora katta e'tibor qaratilmoqda. Raqamli ta'limning rivojlanishi pedagoglarni axborot bilan ishlashning yangi usullarini egallashga undamoqda. Ayniqsa, media va axborot savodxonligini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilar va pedagoglarda axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bunda o'qituvchi axborotning oddiy iste'molchisi emas, balki uning sifatini baholaydigan, ishonchliligini tekshiradigan va o'quvchilarni ham to'g'ri axborot manbalariga yo'naltiradigan pedagog sifatida qaraladi. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi axborotning ishonchliligini aniqlash muammosiga yangi mazmun bermoqda. ChatGPT, Gemini, Copilot kabi vositalar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratish va umumlashtirish imkonini bersada, ular tomonidan taqdim etilgan har bir ma'lumotni avtomatik ravishda ishonchli deb hisoblash mumkin emas. Shu sababli bo'lajak o'qituvchi sun'iy intellekt yordamida olingan ma'lumotlarni mustaqil manbalar orqali tekshirish, faktlarni verifikatsiya qilish va dalillarning haqqoniyligini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Bu esa axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasini zamonaviy pedagogning raqamli va kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezonlardan biriga aylantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasini shakllantirish, avvalo, uning mazmuniy tuzilishini aniq belgilashni talab qiladi. Mazkur kompetensiyani birgina axborotni topish qobiliyati bilan izohlash mumkin emas. Chunki internet qidiruvi orqali ko'plab ma'lumotlarni topish mumkin, biroq ularning barchasi ilmiy, haqqoniy yoki pedagogik jihatdan maqbul bo'lavermaydi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi axborotni izlashdan keyingi bosqichlarda uni saralash, tekshirish, qiyoslash va baholashning izchil algoritmgiga ega bo'lishi kerak. Axborotning ishonchliligini aniqlash jarayonining birinchi bosqichi manbani identifikatsiya qilishdan iborat. Bunda axborotning kim tomonidan, qaysi tashkilot yoki nashr tomonidan yaratilgani,

muallifning tegishli sohadagi ilmiy yoki professional maqomi, materialning e'lon qilingan sanasi va manbaning obro'si aniqlanadi. Ilmiy maqola, rasmiy tashkilot materiali yoki taqrizdan o'tgan tadqiqot bilan noma'lum muallif tomonidan ijtimoiy tarmoqda joylashtirilgan postning axborot qiymati bir xil emas. Shuning uchun bo'lajak pedagog manbaning tashqi ko'rinishiga emas, balki uning kelib chiqishi va daliliy asoslariga e'tibor qaratishi lozim. Ikkinchi muhim bosqichda axborot mazmunini tahlil qilish. Ushbu jarayonda ma'lumotning asosiy g'oyasi, unda keltirilgan dalillar, statistik ko'rsatkichlar, xulosalar va muallifning pozitsiyasi aniqlanadi. Talaba fakt bilan subyektiv fikrni ajratishi, hissiy yoki manipulyativ ifodalarga berilmasligi hamda bir tomonlama yoritilgan masalalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerak. Ayniqsa, sarlavha va asosiy matn o'rtasidagi nomuvofiqlik, dalilsiz umumlashtirish, haddan tashqari hissiy til va noma'lum statistik ma'lumotlar axborotning ishonchliligini qayta tekshirish zarurligini ko'rsatadigan belgilar sifatida qaraladi. Uchinchi bosqich faktcheking va verifikatsiya jarayonidir. Bunda axborot boshqa mustaqil va nufuzli manbalar bilan taqqoslanadi. Agar ma'lumot bir nechta mustaqil manbalarda tasdiqlansa, uning ishonchlilik darajasi ortadi. Aksincha, faqat bitta noma'lum manbaga asoslangan yoki boshqa ishonchli manbalar tomonidan tasdiqlanmaydigan ma'lumotga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarga amaliy topshiriqlar berish orqali aynan mana shu ko'nikmani shakllantirish mumkin. To'rtinchi bosqich axborotning pedagogik qiymatini baholash bilan bog'liq. Har qanday ishonchli axborot ham muayyan ta'lim vaziyati uchun birdek foydali bo'lavermaydi. O'qituvchi ma'lumotning dars maqsadiga mosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ta'lim mazmuni va kutilayotgan natijalar bilan muvofiqligini ham aniqlashi lozim. Demak, axborotning ishonchliligi bilan bir qatorda uning dolzarbligi, ilmiyligi, pedagogik ahamiyati va foydalanish maqsadi ham baholanishi kerak.

Axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Bo'lajak o'qituvchida shakllantiriladigan ko'nikma
Manbani aniqlash	Axborotning muallifi, tashkiloti va kelib chiqishini o'rganish	Ishonchli va noma'lum manbalarni farqlash
Manba nufuzini baholash	Muallifning ilmiy/professional mavqei va manbaning obro'sini tekshirish	Nufuzli manbalarni tanlash
Mazmuniy tahlil	Axborotning mazmuni, maqsadi va dalillarini o'rganish	Fakt va fikrni farqlash
Faktcheking	Keltirilgan ma'lumotlarni mustaqil manbalar orqali tekshirish	Faktlarning haqqoniyligini aniqlash
Qiyosiy tahlil	Bir masala bo'yicha turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirish	Qarama-qarshi ma'lumotlarni tahlil qilish

Tanqidiy baholash	Manipulyativ, noto'g'ri yoki biryozlama axborotni aniqlash	Dezinformatsiyani farqlash
Raqamli savodxonlik	Elektron platformalar va raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish	Raqamli resurslardan samarali foydalanish
AI axborotini tekshirish	Sun'iy intellekt yaratgan ma'lumotlarni mustaqil manbalar bilan solishtirish	AI javoblarini tanqidiy baholash
Pedagogik qo'llash	Ishonchli axborotni ta'lim maqsadlariga moslashtirish	Axborotni dars jarayoniga integratsiya qilish
Axborot etikasi	Mualliflik huquqi, iqtibos va akademik halollikka rioya qilish	Axborotdan mas'uliyatli foydalanish

Bo'lajak o'qituvchilarda mazkur kompetensiyani shakllantirish uchun an'anaviy ma'ruza va reproduktiv topshiriqlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy va muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, talabalarga bir xil mavzuga oid, biroq turli darajadagi ishonchlilikka ega bo'lgan uchta axborot manbasi taqdim etiladi. Talabalar manbalarni mualliflik, nashr sanasi, dalillar, statistik ma'lumotlar, havolalar va boshqa mezonlar asosida baholaydilar. Keyinchalik o'z xulosalarini asoslab berishlari talab qilinadi. Bunday faoliyat talabani tayyor javobni qabul qilishdan ko'ra mustaqil tekshirishga yo'naltiradi.

Keys-stadi metodi ham axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, bo'lajak o'qituvchiga ijtimoiy tarmoqdan olingan pedagogik maslahat, ilmiy maqoladan olingan xulosa va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tavsiya beriladi. Talaba ushbu uchta axborotni taqqoslab, qaysi biri ishonchli ekanligini dalillar asosida asoslaydi. Natijada unda manba bilan ishlash, dalillarni aniqlash, qiyoslash va mustaqil qaror chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Loyiha metodi orqali esa talabalarga muayyan pedagogik muammo bo'yicha axborot izlash va uning ishonchliligini tekshirish vazifasi berilishi mumkin. Bunda talaba bir nechta ilmiy manbalarni tanlaydi, ularning mazmunini tahlil qiladi, ma'lumotlarni guruhlaydi va yakuniy xulosani dalillar asosida shakllantiradi. Ushbu jarayon bo'lajak o'qituvchining nafaqat axborot bilan ishlash, balki ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Sun'iy intellektidan foydalanishga asoslangan topshiriqlar ham zamonaviy sharoitda alohida ahamiyatga ega. Talabaga AI tomonidan yaratilgan javob berilib, undagi faktlar va xulosalarni ilmiy manbalar asosida tekshirish topshiriladi. Bunda talabalar sun'iy intellekt vositasini "tayyor bilim manbai" sifatida emas, balki axborot bilan ishlash jarayonida yordamchi vosita sifatida qabul qilishni o'rganadilar. Bu yondashuv raqamli muhitda mustaqil fikrlash va axborotga tanqidiy munosabatni mustahkamlaydi.

Mazkur algoritmnii pedagogik ta'lim jarayoniga izchil tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarda real internet materiallari, ilmiy maqolalar, yangiliklar, ijtimoiy tarmoq postlari va sun'iy intellekt yaratgan matnlardan foydalanish talabalarning

real axborot muhitida faoliyat yuritish tajribasini oshiradi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarda axborotning ishonchliligini aniqlash kompetensiyasini shakllantirish kompleks pedagogik jarayon bo'lib, unda axborot savodxonligi, media savodxonlik, raqamli kompetensiya va tanqidiy fikrlashning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiya shakllangan pedagog axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning manbasi va mazmunini tahlil qiladi, dalillarni tekshiradi, turli qarashlarni qiyoslaydi va faqat asoslangan ma'lumotdan pedagogik faoliyatda foydalanadi. Natijada o'qituvchining kasbiy mustaqilligi, ilmiy-pedagogik mas'uliyati va raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2011.
2. UNESCO. Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. – Paris: UNESCO, 2021.
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. 21st-Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World. – Paris: OECD Publishing, 2021.
5. European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
6. Council of Europe. Digital Citizenship Education Handbook. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2019.
7. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington, DC: Aspen Institute, 2010.
8. Wineburg S., McGrew S. Lateral Reading and the Nature of Expertise: Reading Less and Learning More When Evaluating Digital Information. – Stanford History Education Group, 2017.
9. Wineburg S., McGrew S. Lateral Reading: Reading Less and Learning More When Evaluating Digital Information // Stanford History Education Group Working Paper. – Stanford, 2017.
10. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. – Strasbourg: Council of Europe, 2017.